

## MAMLAKAT IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SANOATNING ROLI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

**Najimadinov Ravshanbek Dushamboyevich**

*Angren universiteti “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasida dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida sanoat tarmog‘ining roli, sanoat tarmog‘i iqtisodiy salohiyati va samaradorligining mohiyati, tuzilishi, shuningdek sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillar batafsil yoritib berilgan. Yalpi ichki mahsulot hajmi dinamikasi, o‘sish sur’ati va undagi sanoatning ulushi tahlil qilingan. Bundan tashqari, sanoat tarmog‘i iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** *YAIM, sanoat, sanoat mahsulotlari, iqtisodiy samaradorlik, iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy o‘sish, omillar.*

## РОЛЬ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СТРАНЫ И ПУТИ ЕЁ РАЗВИТИЯ

**Нажимадинов Равшанбек Душамбоевич**

*Доцент кафедры «Экономика и финансы» Ангреновского университета*

**Аннотация:** В данной статье подробно описана роль промышленного сектора в экономическом развитии страны, природа и структура экономического потенциала и эффективности промышленного сектора, а также факторы, влияющие на экономическую эффективность промышленного сектора. Проанализирована динамика объема валового внутреннего продукта, темпы роста и доля промышленности в нем. Кроме того, разработаны предложения по повышению экономической эффективности промышленного сектора.

**Ключевые слова:** *ВВП, промышленность, промышленная продукция, экономическая эффективность, экономический потенциал, экономический рост, факторы.*

## THE ROLE OF INDUSTRY IN THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE COUNTRY AND WAYS OF ITS DEVELOPMENT

**Najimadinov Ravshanbek Dushamboyevich**

*Associate Professor of the Department of Economics and Finance at Angren University*

**Abstract:** This article describes in detail the role of the industrial sector in the economic development of the country, the nature and structure of the economic potential and efficiency of the industrial sector, as well as the factors affecting the economic efficiency of the industrial sector. The dynamics of the gross domestic product volume, the growth rate and the share of the industry in it are analyzed. In addition, proposals for increasing the economic efficiency of the industrial sector have been developed.

**Keywords:** *GDP, industry, industrial products, economic efficiency, economic potential, economic growth, factors.*

## KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida tovarlarning uchdan ikki qismi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqariladi. Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar YAIMining qariyb 43,6 foizi va umumiy bandlikning esa 21,7 foizi aynan sanoat hissasiga to'g'ri keladi [10]. Xalqaro tajribalar sanoat tarmoqlarining rivojlanishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholi turmush farovonligining oshirishi va bandlik muammolarini bartaraf etish hamda boshqa tarmoqlarning samarali ishlashi uchun ham sanoat muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Jahondagi globallashtirish sharoitida yuqori texnologiyali sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, sifatli va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hisobiga eksportni ko'paytirishga erishish hamda sanoat tarmog'i salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish borasida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, jumladan mavjud salohiyatdan samarali foydalanish, iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni iqtisodiy-statistik jihatdan baholash, mezonlarini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, va o'sish tendensiyalarini prognozlash hamda sanoat tarmog'i salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish nazariy metodologik usulalarini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida ham sanoat tarmoqlari muhim o'rin tutadi. Shu boisdan, mamlakatimizda keyingi yillarda sanoat salohiyatdan samarali foydalanish va yanada rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va mahsulotlarni diversifikatsiyalash, jarayonlarni raqamlashtirish, investitsion jozibadorligini oshirish, mavjud omillardan samarali foydalanish asosida samaradorlikni oshirish hisobiga iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini ko'tarish, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

“O'zbekiston - 2030” Strategiyasida “Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish, sanoatda qo'shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori

daromadli ish o‘rinlarini yaratish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish, qayta ishlash sanoatida mehnat unumdorligini 2 barobar oshirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan [1].

Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta’minlash maqsadida mamlakatimizda mavjud sanoat salohiyatini chuqur tahlil qilish, ulardan samarali foydalanish va yanada barqaror rivojlanishini ta’minlash, unga ta’sir qiluvchi omillarni tanlash va holatini iqtisodiy jihatdan baholash hamda istiqboldagi prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish orqali ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish talab etilmoqda. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mamlakatimizning milliy mahsulot ishlab chiqarish sohasidagi asosiy tarmoqlaridan biri – sanoatdir. Sanoat o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan boshqa soha va tarmoqlardan o‘z afzalligi bilan tubdan farq qiladi. Sanoat moddiy ishlab chiqarishning asosiy va yetakchi tarmog‘i bo‘lib, uning rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur‘atlar bilan rivojlanishiga olib keladi [2].

Mamlakat iqtisodiy tizimini rivojlantirish uning ishlab chiqarish, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish kuchlarining samarali joylashuvi, aholining turmush darajasi hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyati samaradorligiga bog‘liq. Jahon tajribasi va amaliyoti ham har bir hududning xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarini faqat o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturlar va istiqbolli rejalar orqaligina hal etish mumkinligini ko‘rsatmoqda [3].

Iqtisodiy o‘shishda omillar tizimi katta rol o‘ynaydi. Lekin, bunda hamma omillarning jamlangan ta’siri har birining ta’sir etish darajasi yig‘indisiga teng degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Omillar tizimi – bu ularning oddiy arifmetik yig‘indisi bo‘lmasdan, balki, bunda ichki bog‘lanishlar va tarkibiy elementlarning o‘zaro bir-biriga bo‘lgan ta’sirini ham hisobga olish lozim [4].

Sanoatning barqaror rivojlanishi mamlakatlar uchun doimo muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etib kelgan. Chunki, rivojlanish ko‘p jihatdan sanoatni rivojlantirishga bevosita bog‘liq bo‘lib, barqarorlik va iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ta’minlash, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda mo‘ljallangan prognoz parametrlariga erishish kabi vazifalarni amalga oshirishda sanoat salohiyatidan samarali foydalanish qo‘yilgan maqsadga tezrok erishish imkoniyatini beradi [5]. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik va innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiyotni, jumladan sanoat tarmoqlarini yanada rivojlantirish, aholiga munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta’minlashga erishish mumkin [6].

Sanoat majmuasining muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida

mehnat vositalari va iste'mol tovarlari, milliy daromadning katta qismi yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga erishiladi [7].

Umuman olganda ishlab chiqarish salohiyati – mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalangan holda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlar jarayonida iste'molchilarni sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni shakllantirish, aniqlash va qondirish qobiliyatini anglatadi [8].

Ishlab chiqariladigan sanoat mahsuloti hajmini hududlararo hamda hududlarni mamlakatimiz ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini tahlil etish, ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi [9].

Buning uchun esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos mexanizmlarini joriy etish orqali erishish mumkin. Mazkur mexanizmlar birinchi navbatda iqtisodiyot tarmoqlarining, xususan sanoatning moddiy-texnik va kapital resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilishi, tarmoqlararo tarkibiy qayta qurishni samarali amalga oshirish shuningdek, oqilona investitsiya siyosatini yuritishni qamrab olishi muhim.

## **METODOLOGIYA**

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy statistik ma'lumotlar, statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafik, solishtirma tahlil, statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Iqtisodiy salohiyatni an'anaviy nuqtai nazardan tabiiy resurslar, mehnat resurslari va moddiy-texnik resurslar umumiy samaradorligi sifatida tavsiflash mumkin. Ya'ni, iqtisodiy salohiyat ( $I_s$ ) oddiy tarkibiy qism sifatida shakllanadi va uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$I_s = TR_s + MR_s + MT_s + M_s + Inv_s + Inn_s + Inf_s$$

bu yerda:  $TR_s$  – tabiiy resurslar salohiyati;

$MR_s$  – mehnat resurslari salohiyati;

$MT_s$  – moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi;

$M_s$  – moliyaviy salohiyat;

$Inv_s$  – investitsion salohiyat;

$Inn_s$  – innovatsion salohiyat;

$Inf_s$  – infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat korxonalarining iqtisodiy salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni ikki qismga ajaratish va ularning tarkibini quyidagicha tavsiflash mumkin (1-jadval).

### 1-jadval

#### Sanoat tarmog'i iqtisodiy samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar<sup>1</sup>

Tashqi omillar	Ichki omillar
Tabiiy resurslarning mavjudligi; Aholi daromadlari darajasi; Bozor infratuzilmasi holati; Transport infratuzilmasi holati; Tadbirkorlikni qullab-quvvatlashga doir qonunchilikdagi imtiyozlar va qulayliklar.	Mehnat resurslari malakasi; Texnologiya bilan ta'minlanganligi; Moliyaviy holati; Innovatsion faolligi; Tashkiliy boshqaruv samaradorligi va boshqalar.

Fikrimizcha, iqtisodiy salohiyati ko'p hollarda geografik imkoniyatlarga bog'liq ya'ni, geografik joylashuv va tabiiy resurslarga qay darajada ekanligi ishlab chiqarishni rivojlantirish omillarining eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, respublikamizning turli hududlari geografik joylashuvi va har xil tabiiy resurslarga egaligi bilan ajralib turadi. Bu esa mazkur resurslar bilan bog'liq sanoat tarmoqlari mavjudligi va uning boshqa hududlarga nisbatan rivojlanish sur'ati yuqoriligining asosiy omilidir.

Xususan, energetika sanoati Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Surxondaryo, Andijon va boshqa hududlarda, metallurgiya sanoati Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Andijon va boshqa hududlarda, kimyo sanoati Navoiy, Farg'ona, Toshkent va boshqa hududlarda, yoqilg'i sanoati Toshkent, Qashqadaryo, Farg'ona, Surxondaryo, Navoiy va boshqa hududlarda, mashinasozlik sanoati Andijon, Toshkent, Samarqand, Namangan va boshqa hududlarda rivojlanganligini kuzatish mumkin.


Tahlillarga ko'ra, respublikaning tabiiy resurslarga boy va qulay geografik joylashuvga ega hududlar jumladan, Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Andijon, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida sanoat tarmoqlari rivojlanganligi jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushining yuqori bo'lib, shu sanoat tarmog'i rivojlanishi bo'yicha yetakchilik qilmoqda.

Iqtisodiy-ijtimoiy va infratuzilmaviy rivojlantirish strategiyasi hamda geografik joylashuvidan kelib chiqib, sanoat ishlab chiqarishni joylashtirish, shuningdek xomashyo manbalari bo'yicha taqsimlash bir qancha tamoyillarga asoslanadi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish kuchlarini xomashyo manbalari va iste'mol nuqtalariga orasidagi eng optimal nuqtada tashkil etish, talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va boshqalar. Bundan tashqari, sanoat tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlar jumladan, yangi korxonalarni tashkil etish iqtisodiy samaradorligi

<sup>1</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

o‘zaro bog‘liq bo‘lgan omillar asosida belgilash, ishlab chiqarish obektini qurish va foydalanish bilan bevosita bog‘liq barcha xarajatlarni tejash maqsadga muvofiqdir.

Firkimizcha, hudud sanoati iqtisodiy salohiyati ko‘rsatkichlari tarkibida tabiiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari, mehnat resurslari va texnik salohiyat shuningdek, hududning geografik joylashuvi kabilar ham muhim ahamiyatga egadir (1-rasm).



**1-rasm. Sanoat tarmog‘ining iqtisodiy salohiyati tuzilishi<sup>2</sup>**


Iqtisodiy salohiyat tushunchasi ishlab chiqarish kuchlari faoliyatining turli xil tarixiy bosqichlari tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olib, ular orasida inson resurslari salohiyati va ijtimoiy ishlab chiqarish tarmoqlarining ishlab chiqarish salohiyatlari yaqin-yaqindan hisobga olinib boshlangan.

Tahlillarga ko‘ra, 2023 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YAIM) 1066569,0 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, mazkur ko‘rsatkich 2022 yilda 896617,9 mlrd. so‘mni tashkil etgan. 2023 yilda 2022 yilga nisbatan YAIMning o‘shish sur‘ati 106,0 foizni tashkil etdi (2-rasm).

Ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023 yilda 655821,9 mlrd. so‘m sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, YAIMda sanoat mahsulotlarining qo‘shilgan qiymati 26,1 foizni va uning qo‘shimcha o‘shishida eng yuqori ulush 1,5 foiz aynan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelmoqda, sanoatga qurilishni qo‘shgan holda esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 32,3 va 1,9 foizni tashkil etadi [11].

Ta’kidlash joizki, sanoat tarmog‘i iqtisodiy salohiyatini sanoat korxonalarining joylashishi, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar, tarmoqni rivojlantirish strategiyasi hamda geografik joylashuv, tabiiy resurslar salohiyati, mehnat resurslari salohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi shuningdek, mavjud sanoat korxonalarining moliyaviy salohiyati, investitsion salohiyati, innovatsion salohiyati va moddiy-texnik vositalar bilan ta’minlanganlik darajasi belgilab beradi.

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.



**2-rasm. YAIM hajmi dinamikasi va o'sish sur'ati [11]**

Fikrimizcha, har qanday sanoat tarmog'ida ham resurslardan samarali foydalanish tarmoq rentabelligini oshirishning asosiy shartidir. Shuning uchun ham ko'pgina iqtisodchi olimlar orasida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Shuningdek, sanoat mahsulotlari raqobatbardoshligi, samaradorligi, tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi innovatsion o'zgarishlar va uning asosiy afzalligi hisoblangan zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan foydalanish, faoliyat ko'rsatadigan bozorlar qamrovini kengaytirishga qaratilgan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda uni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, iqtisodiy salohiyat tushunchasi ishlab chiqarish kuchlari faoliyatining turli bosqichlarining tarkibiy qismlarini o'z ichiga olib, ular orasida resurslar samaradorligi muhim sanaladi. Shuningdek, jahon tajribasidan ma'lumki, iqtisodiy taraqqiyotga erishishning asosini ilmiy-texnologik taraqqiyot tashkil etadi, buning rivoji bevosita malakali mutaxassislar va investitsiyaga bog'liqdir. Shu bois, sanoatning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq:

1. Iqtisodiy barqaror rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda bu boradagi tadqiqotlardan foydalanish va ularni har tomonlama qullab-quvvatlash mexanizmini kuchaytirish;
2. Ishlab chiqarish omillari samaradorligini oshirish va global raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishga erishish uchun ilmiy-texnologik sohani rivojlantirish;
3. Yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, moliyaviy ko'maklashish va ortiqcha buyrokratik to'siqlarni bartaraf etish;
4. Inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirish va uning sifatini oshirish tizimini

takomillashtirish, yaratilgan daromadlarni to‘g‘ri taqsimlanishi va mutaxassislarni ijtimoiy-moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash amaliyotini kuchaytirish;

5. Tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish, bevosita investitsiyalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash, personalni rivojlantirishga sarflash hamda innovatsion ishlab chiqarish karidoriga o‘tish;

6. Sanoat tarmog‘ining investitsion jozibadorligini oshirish maqsadida logistika infratuzilmasini yaxshilash, xorijiy investorlarning moddiy manfaatdorligini oshirish va ularning faoliyatini institusional jihatdan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish;

7. Iqtisodiyotning real sektorlari va ta‘lim muassasalarining o‘zaro aloqalarini haqqoniy tashkil etish va bu borada xalqaro innovatsion yondoshuvlarni qo‘llash orqali malakali mutaxassis kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va boshqalar.

Sanoatni rivojlantirishda omillar ta‘sirini baholash, tahlil qilish asosida resurslarning intensiv samaradorligini oshirish va innovatsiyalarni rag‘batlantirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini joriy etish orqali yuqori iqtisodiy salohiyatga va ilmiy-texnik taraqqiyotga erishish mumkin. Natijada mamlakatda sanoatni jadal rivojlantirish orqali yuqori iqtisodiy o‘shish va aholi turmush farovonligini oshirishga erishish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli farmoni.

2. Ernazarov G.B. Sanoatda ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari // “Экономика” научно-аналитический электронный журнал. Выпуск №2, июль 2022 г.

3. Abdullayev I.S., Ruzmetov B. Hududiy iqtisodiy tizimni rivojlanishini prognozlashning kompleks sonli ekonometrik modellari. Monografiya. Toshkent “Lesson Press”, 2017. – 14 b.

4. Thomas R.L. Modern econometrics. - England.: Manchester Metropolitan University, 1998. – 211 p.

5. Maxmudov N., Butabayev M., Xaitqulov A. Hududning qayta ishlash sanoati potensialidan samarali foydalanish yo‘llari / “O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi: omillar, natijalar va istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani ilmiy maqolalar to‘plami, T.: TDIU, 2018, 422 b.

6. Qosimov A. A. Analysis of state development programs (on the example of Surkhandarya Region) //Theoretical & Applied Science. – 2019. – T. 11. – S. 115-120.

7. Azamat K. et al. Improving The Investment Environment In The Country: The Role And Analysis Of Banks In The Modernization Of Industry //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 10. – С. 2220-2227.

8. Mahmudov M.F. O‘zbekistonning sanoat ishlab chiqarish salohiyatini baholash // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №1, 2019, 2 b.

9. Salimov B.B. Sanoat maxsuloti ishlab chiqarishning hududlar bo‘yicha qiyosiy tahlili va uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. №3, 2018, 11 b.

10. UNIDO. Pocket Guide to World Statistics. 2022. SeriesV, N42. p.1-19.

11. Агентство стат. при През.Рес.Узб. «Социально-экономическое положение Республики Узбекистан» за январь-декабрь 2023 года. Ташкент – 2024 г. С.11.

12. <https://stat.uz>